


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 2 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 2



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-2>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa

doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. **Djumanova Dilbar Raximovna, Bakiyeva Gulandom Xisomovna, Yuvasheva Shoiraxamamadovna**
MAQOLLARNING GENDERLIK: RUS VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR SEMANTIKASI.....6
2. **Xajiyeva Difuza Adambayevna**
HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI: BAHOR, TOG' VA TUN POETIK SEMANTIKASI.....12
3. **Эргашева Дилфуза Камиловна**
ЦЕННОСТНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ.....17
4. **Grigoryeva Mariya Vitalyevna**
RUS VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA XRONOTOP (FAZOVIY KONFIGURATSIYA) NING BADIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....21

TARIX

1. **Abdullayeva Laylo**
O'RTA SINFNING SHAKLLANISHI VA UNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.....25
2. **SHeripov Umarbek Atajanovich**
MARKAZIY OSIYODA SUV XAVFSIZLIGI MUAMMOSI VA SIBIR DARYOLARINI BURISH LOYIHASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY TAHLIL.....30
3. **Kamolova Habiba Muhammadiyevna**
AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT....34
4. **Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich**
1945–1956-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA PENSIYA TA'MINOTI (YUTUQ, KAMCHILIK VA TAFOVUTLAR).....38
5. **Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna**
V–XI ASRLARDA JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA AHOLI TURAR-JOYLARINING MADANIY-XO'JALIK RIVOJI VA IQTISODIY-ETNOMADANIY MUNOSABATLAR (XORAZM ARXEOLGIK TADQIQOTLARI ASOSIDA).....43
6. **Jumaniyazova Intizor To'likinova**
MAMLAKATIMIZDA DINIY TA'LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI.....48
7. **Alimova G'unchaxon Baxodirovna**
ARAB MUHAMMADXON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA XIVA XONLIGINING MUSTAHKAMLANISHI.....52
8. **Г.А. Дадамирзаева**
УЗБЕКИСТОНДА ХУНАРМАНДЧИЛИК КООПЕРАЦИЯСИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ.....56
9. **Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li**
TA'LIM TIZIMIGA KOMMUNISTIK G'OYALAR TATBIQI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI.....63
10. **Matkarimova Intizor Atabayevna**
AHOLINI RO'YXATGA OLIISHNING JAHON TAJRIBASI.....69

FALSAFA

1. **Nurmatov Jaxangir Yeshbayevich, Turobov Bekpulat Nusratullayevich**
E.E.BERTELS ASARLARIDA NAVOIY MA'NAVIIY MEROSI TAHLILI.....76
2. **Bozorov Mustafu Jabborovich**
MIGRATSIYA JARAYONINING GENEZISI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL.....82

Nurmatov Jaxangir YeshbayevichXuja Axmad Yassaviy nomli Xalqaro qozoq-turk universiteti,
Teologiya fakulteti, PhD, dotsent.**Turobov Bekpulat Nusratullayevich**Samarqand davlat chet tillar instituti,
Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalar
kafedrasi dotsenti, PhD.
<https://orcid.org/0000-0002-6124-2295>**E.E.BERTELS ASARLARIDA NAVOIY MA'NAVIY MEROSI TAHLILI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22085242>**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada E.E.Bertels asarlarida Navoiy ma'naviy merosi tahlili borasida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, Alisher Navoiy o'zbek mumtoz madaniyati va adabiyotining eng porloq namoyondasi ekanligi haqida E.E.Bertels o'zining asarlarida yigirmadan ortiq mualliflar - Ro'dakiy, Abu Shukur Balxiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Unsuriy, Farruxiy, Amir Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Jomiy, Fuzuliy va boshqalarning forsiy va turkiy tillarda yozilgan g'azallari, qasidalar, to'rtliklari, masnaviylar va qit'alarini qiyosiy tahlil qildi.

Kalit so'zlar: Fors-tojik, Sharq xalqlari, g'azallar, qasidalar, to'rtliklar, shoir.**Nurmatov Jaxangir Yeshbayevich**International Kazakh-Turkish University named after
Khoja Ahmed Yassawi, Faculty of Theology, PhD, Associate Professor.**Turobov Bekpulat Nusratullayevich**Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Associate Professor of the Department of Humanities
and Information Technologies, PhD.
<https://orcid.org/0000-0002-6124-2295>**ANALYSIS OF ALISHER NAVOI'S SPIRITUAL HERITAGE IN THE WORKS OF
E. E. BERTELS****ANNOTATION**

This article discusses the analysis of Alisher Navoi's spiritual heritage in the works of E. E. Bertels. At the same time, E. E. Bertels, in his writings, emphasizes that Alisher Navoi is one of the most brilliant representatives of Uzbek classical culture and literature. In his works, Bertels conducted a comparative analysis of the ghazals, qasidas, quatrains, masnavis, and qit'as written in Persian and Turkic by more than twenty authors, including Rudaki, Abu Shukur Balkhi, Daqiqi, Firdaws, Unsuri, Farrukhi, Amir Khusraw Dehlavi, Alisher Navoi, Jami, Fuzuli, and others.

Keywords: Persian-Tajik, Eastern peoples, ghazals, qasidas, quatrains, poet.

Нурматов Джахангир ЕшбаевичМеждународный казахско-турецкий университет имени Ходжи Ахмеда Яссави,
Теологический факультет, PhD, доцент.**Туробов Бекпулат Нусратуллаевич**Самаркандский государственный институт иностранных языков,
доцент кафедры гуманитарных наук и информационных технологий, PhD.
<https://orcid.org/0000-0002-6124-2295>**АНАЛИЗ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В ТРУДАХ Е. Э. БЕРТЕЛЬСА****АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается анализ духовного наследия Алишера Навои в трудах Е. Э. Бертельса. Вместе с тем Е. Э. Бертельс в своих работах подчёркивает, что Алишер Навои является одним из самых ярких представителей узбекской классической культуры и литературы. В своих исследованиях Бертельс провёл сравнительный анализ газелей, касид, рубай, маснави и кыт, написанных на персидском и тюркском языках более чем двадцатью авторами, среди которых Рудаки, Абу Шукр Балхи, Дакики, Фирдоуси, Унсурси, Фаррухи, Амир Хосров Дехлеви, Алишер Навои, Джами, Физули и другие.

Ключевые слова: персидско-таджикский, народы Востока, газели, касиды, рубай, поэт.

KIRISH. E.E.Bertels o'zining qariyb qirq yillik ilmiy faoliyati davomida nafaqat fors-tojik mumtoz poeziyasini, balki shu bilan birgalikda doimo turk tilli ijodkorlarning ham asarlarini o'rgandi va taqqoslab tahlil qildi. Bu olim Sharq xalqlari adabiyotini madaniy va adabiy aloqalarni inobatga olgan holda o'rganish lozimligini uqtiradi. U o'z asarlarida ilmiy ishonchli material asosida Sharqning mumtoz vakillari ijodining mustahkam o'zaro aloqasi va o'ziga xosligini ko'rsatadi. E.E.Bertels o'zining asarlarida yigirmadan ortiq mualliflar - Ro'dakiy, Abu Shukur Balxiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Unsuriy, Farruxiy, Amir Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Jomiy, Fuzuliy va boshqalarning forsiy va turkiy tillarda yozilgan g'azallari, qasidalari, to'rtliklari, masnaviylar va qit'alarini qiyosiy tahlil qildi.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz madaniyati va adabiyotining eng porloq namoyondasi bo'lganligi uchun sharqshunos olim E.E.Bertels uning ijodiga jiddiy e'tibor berdi. Olimning fikricha, Navoiy ijodining shakllanishi shart-sharoitlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun, shu davr turkiy poeziyaning holati to'g'risida bir qancha so'z aytish joiz. XIV-asrdan boshlab turkiy adabiyot kuchaya boshladi. Bu xususan xorazmlik shoirlarning fors adabiy texnikasini o'z ona tillarida foydalanishga intilishlari bilan bog'liqdir. Bu tendensiya xususan temuriylarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan yanada kuchaydi. Temuriylar turkiy tilida yozgan shoirlarni nafaqat rag'batlantirdilar balki, o'zlari ham bu sohada barakali faoliyat ko'rsatdilar.

ASOSIY QISM. Navoiy asarlarini o'rganish shundan dalolat beradiki, adabiyot bilan qiziqishning kuchliligi temuriylar davrining o'ziga xos xususiyati edi. Shuni ham ta'kidlash joizki, XIV-XV-asrlarda ikki, ya'ni o'zbek va forsiy tillarda ajoyib asarlar yaratgan o'zbek shoirlari fors-tojik mumtoz adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Tojik va fors poeziyasining rivojlanishini Alisher Navoiy, Lutfiy, Yusuf Amiriylar ijodini o'rganmasdan tasavvur qilish mumkin emas. XV-asr fors mumtoz poeziyasining yirik bilimdoni Davlatshoh Samarqandiy o'z zamondoshi Alisher Navoiyning eski o'zbek va fors tilida yozilgan she'rlarini maqtaydi va uni o'rta asrning yirik shoiri Anvariylar bilan taqqoslaydi.

Sharqshunos olim E.E.Bertels Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan "Navoiy" nomli monografiyasida XV-asrda Markaziy Osiyodagi adabiy hayot manzarasini chizadi. Bu asarda Navoiyning hayoti va ijodi haqida birinchi bo'lib o'z davriga nisbatan haqiqiy ilmiy asar yozgan Mixail Nikitskiyning "Amir Nizomiddin Alisherning davlatda va adabiyotda tutgan o'rni" ("Эмир-Низам-ад-дин Али-Шер в государственном и литературном его значении") nomli magistrlik dissertatsiyasining yutuqlari, xato va kamchiliklari, buning sabablari haqida qimmatli fikrlarni

bildirgan. Rus sharqshunosligida ilk bor M.Nikitskiy Alisher Navoiyning ijodini o'rganishga jiddiy e'tibor berib, uni imkon qadar tahlil qilishga harakat qilgan. Bu magistrlik dissertatsiyasi ayrim kamchiliklardan xoli emas, ammo u birinchidan, keyingi ishlarga asosiy manba bo'lib xizmat qilganligi, ikkinchidan, rus navoiyshunosligini boshlab bergani bilan alohida ahamiyatga egadir.

Olimning ilmiy tadqiqotlarida o'ziga xoslik shundan iboratki, ular har qanday talantli, original shoirning shakllanishida moddiy va ma'naviy manbalar muhim rol o'ynashini ta'kidlab o'tadi. Bundan tashqari, E.E.Bertels Alisher Navoiy va Xusayn Boyqaro hayoti va faoliyati bilan bog'liq turli afsona va rivoyatlarga asoslanib, ular tarjimai holining noaniq lahzalariga oydinlik kiritdi. Shu bilan birga o'z asarlarida Alisher Navoiy ijodining keyinchalik boshqa Sharq adabiyotlariga ta'sirini ham yorqin tasvirlab berdi.

E.E.Bertelsning yana bir yirik ilmiy tadqiqoti Navoiyning ijodiga bag'ishlangan "Navoiy va Jomiy" asaridir. Shuni ta'kidlash joizki, olim bu asarida o'z oldiga Navoiyning nazmiy va nasriy ijodini tadqiq qilish vazifasini qo'ymagan. Uning asosiy maqsadi Navoiy hayoti va ijodining muhim tomonlarini yoritishdan iborat bo'lgan. Shu bilan birga bu asarda Navoiy she'rlari, "Xamsa" ga kirgan dostonlari tahlil qilinib, ularning mazmun-mohiyati ochib berilgan. E.E.Bertels nazarida Navoiyning "Xamsa" asaridagi bosh qahramonlar yuksak axloqiy mezonlarga monand fozil va odil shaxslardir. Masalan, Majnun, Farhod va Iskandar o'zlarida butun ezgu fazilatlarni jamlagan va farovon jamiyat qurishni maqsad qilib qo'ygan komil insonlardir.

Tasavvufshunos olim N.Komilov E.E.Bertelsning tadqiqotlariga munosib baho beradi va u birinchilardan bo'lib Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan monografiya yozib, Moskvada chop ettirdi, deb ta'kidlaydi. Uning Hirot adabiy muhiti, Jomiy va Navoiy do'stligi, Navoiy asarlarining mazmunini ob'ektiv yoritganini, shular bilan birga "Navoiy va Attor" nomli asarida "Matiq ut-tayr" va "Lison ur-tayr" asarlarini batafsil ilmiy tahlil qilib, Navoiy asarlarining originalligini isbotlaganligini e'tirof etadi.

MUHOKAMA/NATIJALAR. Sharqshunos olim E.E.Bertels Navoiyning temuriylar davri turkiy adabiyoti namoyondalari bo'lgan Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Sulton Husayn larning ijodi to'g'risidagi fikrlarini tahlil qiladi. Mavjud materiallarga asoslanib, Xalil Sulton va Ulug'bek davrida saroy shoiri bo'lgan Sakkokiy haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Uning asli ismi noma'lum bo'lib, Sakkokiy adabiy taxallusidir. Bu shoir ijodining gullab yashnashi XV asrning qirqinchi yillariga to'g'ri keladi. Sakkokiy g'azallar bilan birga qasidalar ham yozgan. U yozgan qasidasida hukmron doiralarni mutlaqlashtirmaydi, ularning orasida qon so'ruvchi bo'rilar borligini kinoya bilan e'tirof etadi. Navoiyning Sakkokiy to'g'risidagi qisqagina ma'lumoti, uning "Majolis un-nafoyis" kitobida o'rin olgan. Bu asarda Alisher Navoiy o'z davrining yirik shoirlariga ta'rif berib, Sakkokiyning she'rlari Samarqandda yuksak baholanganligini qayd etadi. E.E.Bertelsning ko'rsatishicha, Navoiy Samarqandga qilgan safarining birida bu bahoning rostligini tekshirib ko'rmoqchi bo'ladi. Shuning uchun u Sakkokiy she'rlarini izlaydi, ammo uning so'zlariga qaraganda topganlarida ham hech qanday fazilatlarni ko'rmaydi.

Navoiyning fikricha, Sakkokiyning turk tilida yozgan qasidasi o'zining ijtimoiy qimmatini ma'lum daraja saqlab qolgan. Sakkokiy qasidalarida o'z homiysi Ulug'bekni vasf etgan. Shuningdek, qasidalari Xalil Sulton, naqshbandiya tariqatining yirik vakili Shayx Muhammad Porso va Ulug'bekning ulug' Amiri Arslon Xoja Tarxon ham vasf etilgan.

Sakkokiy g'azallaridagi obrazlarni sayqallashtirishda shu davrda keng tarqalgan fan terminlaridan foydalangan. Jumladan:

Firoqing bo'tasi ichra tanimni sizg'irur har dam.

Yuzimni oltun* etgali g'aningni kimyo qilma.

Misrada kimyo fani terminlari iste'foda etilgan. Yuqoridagi misrani E.E.Bertels quyidagicha izohlaydi: demak, hijron shoirning qonini eritadigan qozon bo'lsa, buning natijasida qo'msash esa "falsafa toshi"ga aylanadi. Haqiqatdan ham bu tosh ham oltin paydo qiladi va hijronda yurgan shoir yuzini oltin rangiga bo'yaydi.

Eski o'zbek tilida she'rlar yozgan yirik shoir Atoiyning ham faoliyati Samarqand bilan bog'liqdir. U balxlik bo'lsa-da Ulug'bek va uning o'g'li Abdulatif saroyining shoiri hisoblangan. Atoiy g'azallari zamondoshi Sakkokiy g'azallariga o'xshaydi. Atoiy ham g'azal lirikasi uchun

odatiy bo'lgan majozni ibora bilan berishga, unga yangilik bag'ishlashga intiladi. Uning g'azallari go'zallar tahsiniga bag'ishlangan. Sakkokiy o'likka sohibjamol nutqi jon bag'ishlaydi, deb go'zallikni alqaydi. Ammo Atoiy sohibjamol ta'rifini sxolastik falsafaga asoslangan holda takrorlaydi. Ma'lumki, sxolastik falsafa vakillari "ruh" ning nima ekanligi, uning qanday paydo bo'lishi ustida fikr yuritganlar va asarlar yozganlar.

Hirof lirikasining yirik vakili, eski o'zbek g'azaliyotining eng kuchli ijodkori Lutfiy hisoblangan. Lutfiy XIV asrning ikkinchi yarmida tug'ilgan. Dastlab u o'z davridagi dunyoviy ilmlarni (shu davrda dunyoviy ilmlar "zohiriy ilmlar" deb atalgan) o'rgangan. Keyinchalik Shayx Shahoddin Xiyoboniy bilan uchrashib, tasavvuf ta'limoti bilan qiziqib qolgan. Navoiy uni avliyosifat va saxovatpesha kishi sifatida e'zozlaydi. Lutfiy Navoiy tili bilan aytganda bu faqirni, ya'ni o'zini ko'p duo qilgan. Navoiy ulug' darveshning qilgan duolari mustajob bo'ladi deb, umid qiladi. Shoir o'zining "Majolis un-nafois" asarida Lutfiyning darvesh ekanligini e'tirof etadi. Ammo shu bilan birga E.E.Bertels uning darveshlar jamoasiga kirgan-kirmaganligini bilmaymiz, deb yozadi. Lutfiy darvesh bo'lishiga qaramasdan, jamoaga kirmagan ham bo'lishi mumkin.

E.E.Bertelsning fikricha, Lutfiyning ham ayrim misralarini ehtimol, Hofizniki kabi tasavvuf ruhida talqin qilish mumkin. Lekin Lutfiyning asarlarini tasavvufdan bexabar o'quvchi ham majoziy izohlarsiz bemalol o'qiy oladi va zavqlanadi. Shunga asoslanib, Lutfiy lirikasi, asosan, dunyoviy ruhda ekanligiga va diniy falsafa bilan yaqin aloqada bo'lmaganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Lutfiy Amir Temur tarjimai holi to'g'risida "Zafarnoma" nomli she'riy asarining qoralamasini tayyorlagan bo'lib, uning "Gul va Navro'z" nomli dostoni fantastik ishqiy sarguzashtdan, devoni fors va eski o'zbek she'rlaridan iborat edi. Garchand uning fors tilida yozilgan she'rlari maqtovg'a sazovor bo'lsa-da, o'z tilidagilari juda mashhur bo'lgan. Navoiyning e'tiroficha, Lutfiyning turkiyda shuhrati ko'proq bo'lib, uning turkcha devoni mashhur edi. Shu davrning ko'pchilik mualliflariga o'xshab, uning devoni ham g'azallardan iborat bo'lgan. Navoiy "Majolis-un-nafois" asarida fors va turk poeziyasida unga teng keladigani yo'q edi, ammo turkchada ko'proq mashhur edi, degan ta'rifni beradi. Bu baho Lutfiyning poeziyasi keyingi davrda eski o'zbek poeziyasining rivojlanishiga katta turtki bo'lganligini ko'rsatadi. Alisher Navoiyning o'zi ham bu ta'sirdan chetda qolmadi. Lutfiydan keyingi shoirlar uning she'rlaridan foydalanib, muxammaslar bitdilar. Navoiy ham Lutfiy g'azallariga bir qancha muxammaslar yozgan.

XV asrning turk shoirlari ichida ko'zga ko'rinarlisi Sulton Husayn edi. Sulton Husayn shu davrning asosiy adabiy tili bo'lgan - forsiyni mukammal bilgan va bemalol yoza olgan. Juda mazmunli kitob "Majlis al-ushshoq" uning nomi bilan bog'liqdir. Bu olimlar, shoirlar tarjimai holi to'g'risidagi asar bo'lib, unda ko'pincha ishq tarixi izohlanadi. Alisher Navoiy Sulton Husaynni turk tillari sohasida katta nufuzga ega bo'lgan kishi sifatida ko'rsatadi. Sulton Husaynning devoni eski o'zbek tilida yozilgan, uning asosiy qismini davrning asosiy janri-g'azal tashkil etadi. Sulton Husayn o'z ona tilining chuqur bilimdoni bo'lishi bilan birga eski o'zbek tilining rivojlanishiga ko'mak bergan.

Sulton Husayn Boyqaro 1469-yilning aprel oyida Hirotda taxtga o'tirdi, degan ovozlari Samarqandga tarqaldi. 1469-yilning 14-aprelida Sulton Husayn saroyida bayram bo'lib, katta qabul marosimi o'tkazildi. Bayram marosimida Navoiy Sultonga "Hiloliya" qasidasini taqdim etdi. Chunki bu qasidaning hamma baytlarining oxirgi so'zi hilol edi. Shoir Husayn Bayqaroning taxtga chiqishini yangi oy hilolga qiyosladi. Qasida e'tiborga sazovor bo'lib, Alisher muhrdor lavozimiga tayinlandi.

Davlat ishlari Navoiyning ko'p vaqtini olgan bo'lsa-da, ammo hech qachon adabiyotdan o'zini ayro sezmedi. Navoiy dastlabki vaqtlarda lirika janrida she'rlar yozishni boshlaganligi aniq, ammo hozirgacha uning lirikasi juda oz o'rganilgan, deb e'tirof etadi E.E.Bertels. Navoiy oxirgi vaqtlarda juda ko'p she'rlar yozgan. Bu she'rlarini u dastlabki ikkita devoniga kiritgan ("Badoe'ul ul-bidoya", "Navodirun-nihoya") va barcha lirikasini yangi nom bilan ataluvchi to'rtta devonga bo'ldi.

Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyni o'z ustoz, deb bilgan va o'gitlariga amal qilgan. Ustozining maslahatiga ko'ra u o'zbek tilidagi she'rlari jamlangan devoniga quyidagi nomlarni

bergan: 1. “G‘aroyib us-sig‘ar (“Yoshlik ajoyibotlari”) - bu devonga 17-20; 2. Navodir ush-shabob (“Yigitlik nodirliklari”) - 21-35; 3. BadoE’ ul-vasat (“O‘rta yosh badialari”) - 36-45; 4. Favoid ul-kabir (“Keksalikning foydali maslahatlari”) - 46-60 yoshlaridagi she‘rlari kirgan.

Akademik A.Qayumovning e‘tirof etishicha, mutafakkir shoirning ba‘zi g‘azallarida soxta shayxlar (radif-shayxlar) haqida yozadi. Shoir ularning behayoligi, makr-hiylalarini fosh etib, qo‘lidagi asoslarini hiyla uyining ustunidir, deydi. Navoiyning yozishicha:

Bu el erur barcha yomondan yomon,

Kimki yo‘q andin yomon, andin yomon.

Navoiy g‘azallarida Hirotda ko‘plab to‘planib qolgan shayxlar faoliyatini aks ettiradi. Ularni tovlamachilar deb ataydi. Ya‘ni:

Xonaqahda halqai zikr ichra g‘avg‘o qildi shayx,

Ahli dillar naqdi avqotini yag‘mo qildi shayx.

Ul biri dom erdi, bu bir dona el saydi uchun,

Har qachonkim azmu tasbihi musallo qildi shayx.

Yo xayoli bang, yoxud xonaqah fikri edi,

Har karomotu maqomoteki ishfo fildi shayx.

Bu g‘azal shunisi bilan xarakterliki, Navoiy an‘anaviylik doirasidan chiqadi va unga g‘azal ko‘pincha jamiyatdagi ijtimoiy illatlarni fosh qilish uchun qo‘l keladi. Bu g‘azalda darvesh faoliyatining yorqin manzarasini chizib ko‘rsatadi. Darveshning qiyofasini birgina baytda izohlab bo‘lmaganligi tufayli, g‘azalning boshidan oxirigacha birday o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rish mumkin.

XULOSA. Navoiy ba‘zi g‘azallarida mavzudan chiqmagan holda, rasmiy o‘zgarishlar qiladi, yangi yaratilgan o‘lchovlarni qo‘llaydi, tilni soddalashtiradi, g‘azalni jonlantiradi va tabiiylashtiradi. Markaziy Osiyoda yaratilgan mumtoz devonlarning hammasida mazmun jihatidan eng boyi va qiziqarlisi qit‘a hisoblanadi. Bu odatda uncha katta bo‘lmagan she‘r bo‘lib, tashqi jihatdan g‘azaldan farq qilmaydi. Qit‘a uchun an‘anaviylik mavjud emas. Shuning uchun shoir o‘zining fikrlarini erkin bayon qilishga haqlidir. E.E.Bertels Navoiy qit‘aga qanchalik katta ahamiyat berganligini shoir so‘zlari bilan izohlaydi. Mutafakkir men yiqqan qit‘alarning har biri bog‘ bo‘lib, u Erda aql dam oladi, tuprog‘ini donolik suvi bilan sug‘ordim va hammasini bog‘larga aylantirdim. deb yozadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Бертельс Е.Э. Навоий. Монография./ Таржимон И.К.Мирзаев.ф.ф.д., проф. –Т.: Tafakkur qanoti, 2015.Б. 69.
2. Бертельс Е.Э. Навоий. Монография./ Таржимон И.К.Мирзаев.ф.ф.д., проф. –Т.: “Tafakkur qanoti”, 2015. Б. 84.
3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. Том. 4. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Составитель и редактор Э.Р.Рустамов. М. 1965. Б. 59-60.
4. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. Том. 4. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Составитель и редактор Э.Р.Рустамов. М. 1965. С. 49.
5. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. Том. 4. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Составитель и редактор Э.Р.Рустамов. М. 1965. Б. 86.
6. Бертельс Е.Э. Навоий. Монография./ Таржимон И.К.Мирзаев.ф.ф.д., проф. –Т.: “Tafakkur qanoti”, 2015. Б. 139.
7. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. Том. 4. Издательство “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. Составитель и редактор Э.Р.Рустамов. М. 1965. Б.94-95.
8. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. –Т.: Шарк, 2011. Б. 202.
9. Рустамов Э.Р. Узбекская поэзия в первой половины XV века. –М.: 1963 стр. 55-61.

10. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. Ўзбекистон Фанлар Академияси нашриёти. Тошкент-1959. Б. 7.
11. Халлиева Г. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти. Монография. Тошкент. 2018. Б.109
12. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти (Алишер Навоий даври). Тошкент. “Akademnashr”. Тошкент. 2013. Б. 25.
13. Қаюмов А. Алишер Навоий. Улуғ шоир ҳаёти ва ижоди тўғрисида лавҳалар. Тошкент. “Камалак”. 1991. Б. 89.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].